

DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA ELEKTRON SAVDOLARNI AMALGA OSHIRISH ISTIQBOLLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

*Hayitmurodov Samarbek Sanjar o'g'li
Toshkent Moliya Institut DMXM 01/23 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlari tizimida qo'llaniladigan elektron savdo vositalari va ularni rivojlantirish yo'llariga bag'ishlanadi. Davlat xaridlari tizimida qo'llanilinib kelinayotgan elektron do'kon, eng yaxshi takliflarni tanlab olish, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar hamda auksion va tender kabi bir nechta elektron shakldagi davlat xaridlariga to'xtalib o'tiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan shakllarning ijobjiy va salbiy tomonlariga urg'u berish bilan bir qatorda xorij tajribasi va metodlari haqida gap borishi bilvosita odamni ipsiz o'ziga bog'laydi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, davlat buyurtmachisi, tender, elektron savdo, eng yaxshi takliflarni tanlash, g'olib, "yashil" davlat xaridlari.

KIRISH

Davlat xaridlarini elektron tizim orqali amalga oshirish sohada shaffoflik hamda moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish, budget mablag'laridan samarali va tejamkorona sarflanishi ustidan to'laqonli monitoring qilish imkoniyatini yaratib beradi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda asoslanganlik, mas'uliyatlilik va kasbiy mahorat hamda davlat xaridlari tizimining yagonaligini va yaxlitligini kabi bir qator prinsiplarni [1] taqozo qiladi. Yuqoridagi prinsiplarga asoslanib, davlar xaridlarini elektron platformalarda amalga oshirish bir qancha tashqi omillar bilan bir qatorda yuksak malakaviy-kasbiy tayyorgarlikni taqozo etadi.

MATERIALLAR VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sun bilan tasdiqlangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida ham tasdiqlangan 100 maqsadning eng asosiyalaridan biri sifatida ko'rileyotgan 77- maqsad "Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lmini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtaqidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish" masalasida ham mamlakatimiz elektron hukumat va buning oqibatida ko'plab sohalarni elektronlashtirishni taqozo qiladi. [2]

2024-2026 yilgi Byudjetnomada ham davlat xaridlari jarayonining avtomatlashtirilganlik darajasiga alohida to'xtalib o'tilgan va 2024-2026 yillar uchun birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlarida bu ko'rsatkichni 2024-yilda 56 foizga olib chiqish maqsadi qo'yilgani bayon etilgan.

Bu ko'rsatkichni mos ravishda 2025-yilda 58 foizga hamda 2026-yilda 60 foizga

yetkazish prognozlashtirilgan. [3] Davlat xaridlari uchun ham alohida bir elektron platform tashkil etilgan va kun sayin ushbu elektron portal yangilanib, elektronlashib bormoqda. Maxsus axborot portalı vakolatlı organ tomonidan yuritiladigan, davlat xaridlari amalga oshirilishi to‘g‘risidagi e‘lonlar, davlat xaridlarining yakunlari, ishtirokchilarning takliflari haqidagi axborotni va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa axborotni elektron shaklda ko‘zdan kechirishni, shuningdek amalga oshirilgan elektron davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari tomonidan kiritiladigan (yuboriladigan) axborotni to‘plashni ta’minlovchi veb-saytdir (maxsus elektron platforma).

Maxsus axborot portalida: davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotning jamoatchilik uchun ochiqligi; davlat xaridlari sohasidagi axborotni jamlash, unga ishlov berish va tahliliy hisobotni shakllantirish; davlat xaridlarining elektron tizimlari va boshqa axborot tizimlari bilan hamkorlikni amalga oshirish; xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari tomonidan davlat xaridlari subyektlarining o‘z vazifalarini ushbu Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablari doirasida amalga oshirayotganligi ustidan monitoring va nazorat o‘tkazish ta’milanadi. Maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartibtaomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish, davlat xaridlari monitoringi va nazoratini o‘tkazish jarayonlari tizimlashtiriladi.

Budget buyurtmachilarining davlat xaridlari bo‘yicha to‘lovlari maxsus axborot portalida davlat xaridlarini rejalashtirish, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, shartnoma tuzish va ular to‘g‘risida axborot joylashtirish jarayonlari tugaganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining G‘aznachiligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. [4]

NATIJALAR VA MUNOZARALAR

Xarid qilish tartibtaomillarini ochiq va raqobat asosida amalga oshirilishini ta’minlovchi davlat xaridlarining elektron tizimlari tashkil etildi. Mazkur davlat xaridlarining elektron tizimlari orqali 2022 yil davomida davlat buyurtmachilarini tomonidan jami 204,5 trln so‘mlik xaridlar amalga oshirildi.[5] 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasining YAIM hajmi joriy narxlarda 888.3 trln. so‘mmi tashkil etdi. Bu esa 2022-yildagi davlat xaridlari 2022-yildagi YAIM ga nisbatan qariyb 23 foizni tashkil etdi. Amalga oshirilgan savdolar natijasida davlat buyurtmachilarining jami 14,3 trln. so‘mlik mablag‘lari iqtisod qilinishiga erishildi. Shuningdek, barqaror rivojlanish mezonlari asosida xaridlar bo‘yicha qarorlarni asoslash uchun “yashil” davlat xaridlarini joriy etish — mahalliy “yashil” tovarlar bozorini qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarishda barqaror standartlarni ilgari surish va davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida tender va shartnomalarda ekologik mezonlardan foydalanishga ruxsat beradigan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunning ta‘sirini

kuchaytirish belgilab berildi.[6] “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish asnosida davlat xaridlarini ham bosqichma-bosqich isloh qilish strategiyasini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Germaniya davlati misolida qaraydigan bo‘lsak, ushbu mamlakatda davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunning asosiy tamoyillari raqobat, oshkorlik, teng huquqlilik, kamsitilmaslik va mutanosiblikdir. Raqobat cheklovlarining (Gesetz gegen Wettbewerbsbeschränkungen – GWB) bat afsil qoidalari va tegishli qarorlari ushbu tamoyillarni protsessual va moddiy reglamentlar orqali amalga oshiradi va ushbu tamoyillarni konkretlashtiradi. Noma'lum yuridik atamalar yoki shunga o‘xshash holatlarda ushbu asosiy tamoyillar talqin qilishda yordam beradi. Ushbu tamoyillarga qo'shimcha ravishda, buyurtmachi birinchi navbatda kichik va o'rta korxonalar manfaatlarini hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, davlat buyurtmalarini berishda sifat va innovatsiyalar, shuningdek, ijtimoiy va ekologik jihatlar hisobga olinishi kerak.

XULOSA

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ayta olamizki, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida, davlat xaridlari portalida kichik biznes uchun alohida bir elektron savdo shaklini tashkil etishimiz yoki ma'lum qiymat birligidagi tovar va xizmatlarni aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yo'naltirishimiz, oxir-oqibat davlat buyurtmachilarini va tadbirkorlik o'rta sidagi aloqaning rivojlanishiga olib kelgan bo'lar edi. Davlat iqtisodiyoti rivojlanar ekan, davlat xarajatlari ham bevosita ortiq boradi, biz buni tan olishimiz darkor, lekin xarajatlarni maqsadli va to‘g‘ri yo'naltirish ham bir og‘ir masaladir. Bu masala yechimi sifatida esa elektron savdolarni rivojlantirish, ochiqlik va korrupsiyadan holi bir shaklga keltirish mamlakat iqtisodiyoti uchun ayni zarurdir.

QO'LLANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Davlat xaridlari to‘g‘risida” qonuni 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son, 5- modda
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 77-maqсад
3. 2024-2026-yilgi Budgetnomaga 5-ilova, 2024-2026 yillar uchun birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Davlat xaridlari to‘g‘risida” qonuni 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son, 27- modda
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2023-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son, “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha choratadbirlar to‘g‘risida”, 2.7.3. Tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko‘paytirish, e band